



INGLIZ TILIDAGI OG'ZAKI NUTQNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Abdullayeva Sarvinoz Aktamjon qizi
Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'plab yangi til o'rganayotganlar duch keladigan asosiy muammoni gapirish ko'nikmasida duch keladigan qiyinchiliklar, ularni keltirib chiqaradigan ayrim sabablar va ularni qay usulda usulda samarali yengib o'tish kerakligi haqida bayon qilinadi. Ma'lumki gapirish ko'nikmasida sodir bo'ladign muammolarga asosan ikki omil sabab bo'ladi ,bular ichki to'siqlar yani ishonchsizlik yoki qo'rquv. Ikkinchi muhim omillardan biri esa til bilimi yoki texnik qiyichiliklar, bulrga so'z boyligi yoki g'oya yetishmasligi kiradi. Quyida biz ushbu muammolar va ularni samarali yengib yengib o'tish uchun qanday zamonaviy texnologik metodlardan foydalanish kerakligi haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: nutqni rivojlantirish uslublari, pedagogik mahorat, zamonaviy texnologik usullar, psixologik yondashuvlar, o'yinli metodlar.

KIRISH



Hozirgi kunda yurtimizda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yuqori. Yangi tilni o'rganish jarayonida ular turli xil muammolarga duch kelmoqda Xususan birinchi navbatda chet tilida og'zaki nutq ko'nikmasini to'g'ri shakllantirish va rivojlantirish, uni har jabhada tadbiq etish til o'rganuvchilar uchun dolzarb muammo bo'lmoqda . Ayrim chet til mutaxassislarining fikricha, nutq bu shunchaki muloqat jarayoni emas, so'zlash yoki gapirish ham emas, Nutq bu gapirish faoliyat chog'ida yaxlit fikrning paydo bo'lishi va uni osha jarayonda ifoda qilishdir . Chet tilini o'rganish jarayonid og'zaki nutqni rivojlantirish yoki shakllantirishda metodik uslublarga suyanish muhim hisoblanadi .Bunda turli zamonaviy ,innovatsion va texnologik metodlardan foydalanish til o'rganuvchilar uchun samarali natija ko'rsatadi . Hozirgi kunda mamlakatimizda bajarilayotgan chet til borasidagi islohatlar bevosita insonlarni yangi til o'rganishga undaydi .Bundan tashqari ,hozirda yurtimizda maktab, kolej, litsey, oliy ta'lim va hatoki maktabgacha ta'lim dasturlarida ham chet tilga ehtiyoj sezilmoqda . Insonning shaklanish yillarida pedagogic va psixologik jihatdan til o'rganishga chanqoq o'quvchilarni tarbiyalash va ularga g'amxo'rlik qilish hamda maktabgacha ta'lim tajribasi o'quvchilar uchun umr boyi muhim ta'sir ko'rsatishiva bu butun jamiyatga yoyda keltrishi mantiqn eng to'g'ri yo'ldir . Ayniqsa Xorijiy tillarni o'rganish erta yoshdan boshlansa bevosita nutq ko'nikmasini ham yaxshi yaxshi shakllanishiga olib keladi .

Og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirish masalasi yuqori sur'atdagi jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon o'z-o'zian tinglash, o'ylash va mulohaza qilish hamda psixologik mexanizmlarni o'z ichiga oladi . Chet tilini o'rganish jarayonida, o'qish



o'yinlaridan foydalanish bevosita og'zaki nutq so'zlash va sintaktik til tuzilmalari bilan ishlash ko'nikmalarini beradi.

O'qish o'yinlari darajalangan ehtiyojlarni qondirish uchun 3 turga bo'linadi.

- So'zlarni o'qish
- Jummalarni o'qish
- Matinlarni o'qish

Ushbu jarayonlar orqali o'rganuvchilar dastlab so'zlarni talaffuz qilishni o'rganadilar. Aynan o'quvchilar ushbu sohada yuzlashadigan qiyinchiliklar ni yengishga yordam beradi. Chunki ayrim o'rganuvchilar chet tilidagi so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilishdan qo'rqib gapirishga jur'at qila olamaydi. O'qish o'yinlari esa o'quvchilarni talaffuzda mavjud bo'ladigan muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Undan tashqari ti o'rganuvchilarda qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklar ham mavjud, yani ular nutq so'zlash jarayonida o'ylash uchun ham qo'shimcha vaqt talab qiladi. Natijada, bunday bunday qisqa to'xtamlar nutqni ifoda jihatidan zaif qilib ko'rsatadi. Ushbu muamoni yechish uchun ayrim o'yinli metodlardan foydalanish samarali bo'ladi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan uslublardan "muammoli vaziyat yechimi" (creative problem solving) "tezkor javob" (Quick answers) kabilar og'zaki nutqni rivojlantirish, qolaversa tezkor fikirlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'yinlarda ishtirok etish va harakatga yo'naltirilganlik chet tili darslarida haqiqiy kommunikativ vaziyat bo'lib xizmat qiladi va talabalarga xizmat qiladi va talabalarga erkin gapirish imkonini beradi, talabalarni mustaqil ishlashga undaydi, chunki o'qituvchi o'yin paytida har bir o'quvchining harakterini nazorat qila oladi. Psixologik nuqtai nazardan qarayqigan bo'lasak, ayrim insonlarda xulq-atvor ham gapirish ko'nikmasini shakllantirishda to'siq bo'la oladi. Misol uchun ayrim o'quvchilar uyatchanlik xususiyatiga ega bo'lishadi va ular o'z fikrlarini ochiq oydin ifoda etishda qiynaladi. Masalan ular muhim suhbatlarda yoki tqadimotlarda fikrini bayon qilishdan oldin ko'p o'ylaydi, hattoki gapirishdan oldin ko'p o'ylaydi hattoki gapirishdan vos vos kechishi mumkin. Bu esa uning g'oyalarini boshqalar bilan bo'lishiga xalaqt beradi. Uyatchanlik insonning o'ziga bo'lgan ishonchi pastligi boshqalar oldida haddan tashqari qo'rish va noqulqylik his etish bilan bog'liq. Xuddi shunday ham so'zlovchi insonlarda ham o'ziga bo'lgan ishonchsizlik mavjud bo'lib, o'z fikrini aniq va ravon ifoda etishga qiynalishadi.

Mana shu turdagi til o'rganuvchilari asosan og'zaki nutq ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishda ko'plab qiyinchiliklarni boshidan o'tkazadi. Ushbu muamoni hal qilish uchun til o'rganuvchilarga o'zlari uchun qulay bo'lgan muhit yaratish, noto'g'ri javoblar uchun tanqidni hamroq ishlatish, uning o'rniga esa ularni ko'proq rag'batlantirish ularning nutqini asta sekinlik bilan ravon qilishga xizmat qiladi. Til o'rganuvchilar og'zaki-nutq jarayonida yuzlashadigan yana bir muammo bu so'z boyligi. Ular nutq so'lar ekan, lug'atlardan foydalanadi. Agarda ularda mana shu baza yetarli darajada



bo'lmasa ,birinchidan pauzalar bo'ladi . Ikkinchidan nutqning jozibadorligi yo'qoladi shuning uchun xorijiy til majmuasida yetrli darajada so'zboyligi bo'lmog'i lozim.

XULOSA

Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantrish muammolar va ularni samarali bartaraf etish uchun muqobil yechimlar ko'rib chiqildi .Og'zaki nutqni shakllantirishda eng muhim jihatlar bu so'ngi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan chet tiliga doir islohatlardir.Misol uchun,davlatimiz prezidenti Mirziyoyev .Sh.M. chet tillarini o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida 2021-yil 19-maydagi 312-son qarori ham urg'uni aynan xorijiy tillarni o'rganishga qaratilgan .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Achilova.M. “Pedagogik-Pisxologik tadqiqotlarda o'quvchilar tafakurini rivojlantirish muammosining o'rganilishi “ 2022-yil 8-son
2. Pirmqulova.S. “ Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda o'yin mashqlarning roli” 2022-yill 8-son
3. Ergasheva.E. “Ingliz tili darslarida og'zaki nutqni rivojlantirishning samarali usullari”
4. Nurullayeva.M. “Ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy xususiyatlari”
5. Anorbekavo 6 A “ Og'zaki nutqni rivojlantirish tomoyillari”
6. Professor Jack.C Richards “Communicative language teaching today “
7. Valiyev .Q. “Ingliz tili darslaria akademik litsey o'quvchilari nutqiy kompetensyanni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari “